



**SHUXRAT ORIF IJODIDA NOODATIY  
BIRIKMLARNING QO'LLANISHI**

**Ibragimova Iroda Artikmashrabovna**

*Namangan davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi*

*Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

**Abdukarimova Moxidil Xayrullo qizi**

*Namangan davlat pedagogika instituti*

*O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi*

*E-mail: abdukarimovamohidil@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida o'ziga xos uslubi bilan ajralib turuvchi Shuxrat Orif ijodida qo'llanilgan noodatiy birikmalarning funksional tabiati tahlil qilinadi. Jumladan, bunday birliklarning ichki ziddiyat va paradokslarni ifodalashdagi o'rni, o'quvchiga ta'sir etish xususiyatlari hamda badiiy nutqni boyitishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, noodatiy birikmalar orqali she'riy ifodaning yangilanishi va individual uslubning shakllanishi masalalari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** noodatiy birikmalar, individual uslub, ichki paradoks, oksimoron, funksional xususiyatlar.

Ijodkorning o'ziga xosligi uning asarlarida, xususan, she'riyatida yaqqol namoyon bo'ladi. She'riyatni oddiy matnlardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyat - uning badiiy tilidir. She'r ham barcha matnlar singari so'zlardan tashkil topadi, biroq undagi so'zlar shoirning badiiy-estetik tafakkurini aks ettiradi. Shu bois ijodkor o'z individual uslubidan kelib chiqib, noodatiy so'z va birikmalardan foydalanadi hamda shu orqali she'rni nafaqat oddiy matnlardan, balki boshqa shoirlar ijodidan ham ajratib turadi. Shoir ijodida noodatiy semantik assotsiatsiyalar va turli so'z turkumlaridan o'ziga xos tarzda foydalanilishi she'rning o'quvchi uchun jozibadorligini oshiradi, shu bilan birga, undagi falsafiy paradokslarni ochishga xizmat qiladi. Chunki ijodkor umumiy iste'moldagi so'zlar bilan cheklanib qolmay, balki o'zining individual badiiy salohiyatiga tayangan holda g'ayrioddiy ifodalarni qo'llaydi. Natijada she'rda ichki ziddiyat kuchayadi va chuqur ma'no qatlamlari yuzaga keladi. Ana shunday xususiyatlari bilan ajralib turuvchi shoirlardan biri Shuxrat Orif hisoblanadi.

Badiiy asarni yaratishda serqirra ijodkorlar til birliklari — so'zlar, iboralar, turli birikmalar va sintaktik vositalardan yuksak mahorat bilan foydalanadilar. Ular ushbu birliklarga qo'shimcha ma'no yuklash orqali matnning mazmundorligini oshiradi, estetik ta'sir kuchini kuchaytiradi hamda o'quvchida chuqur taassurot uyg'otishga erishadi. Ijodkor individual badiiy tafakkuriga tayangan holda she'riyatida kam



uchraydigan, kundalik nutqda deyarli qo‘llanmaydigan, biroq kuchli ziddiyatni yuzaga keltiruvchi hamda ifoda uyg‘unligini ta‘minlovchi birliklardan foydalanadi. Bunday vositalar ilmiy adabiyotlarda noodatiy birikmalar sifatida talqin etiladi.

Mazkur holatni Pirimqul Qodirov quyidagicha izohlaydi: “Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g‘isht, oyna va po‘latdan quriladi. Adabiy asarda esa ularning o‘rnini badiiy so‘z egallaydi...” Mazkur fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, adabiy asarda aynan so‘z asosiy ifoda vositasi hisoblanadi. Shu bois noodatiy birikmalar muallifning individual uslubini namoyon etuvchi hamda ta‘sirchanlikni oshiruvchi muhim omil sanaladi.

Bu nuqtai nazardan qaralganda, badiiy nutqda ekspressiv sintaksisning muhim unsurlaridan biri sifatida poetik aktuallashuv imkoniyati yuqori bo‘lgan vositalardan — noodatiy birikmalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular qatoriga okkazional so‘zlar, oksimoronlar, zidlashtirish va kontrast kabi hodisalar kiradi. Bunday birliklar mazmunni chuqurlashtirib, muallif uslubini yanada yorqinlashtiradi.

I. Ibragimova “Poetik tafakkurning lisoniy reprezentatsiyalashuvi” nomli dissertatsiyasida: “Kashf etish, yangilik yaratish, lol qoldirish ko‘pincha ijod kishilarining vazifasidir” , — deya ta‘kidlaydi. Darhaqiqat, ijodkorning noodatiy birikmalardan foydalanishi ham o‘ziga xos kashfiyot sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki bunday birliklar nutqda kam uchrasa-da, badiiy-estetik jihatdan katta ahamiyat kasb etib, yangi ma‘no qatlamlarini ochadi va ichki paradokslarni yuzaga chiqaradi.

Shuningdek, Abdurauf Fitrat o‘zining “Adabiyot qoidolari” asarida adabiyotning mohiyatini quyidagicha izohlaydi: “Adabiyot — fikr va tuyg‘ularimizdagi to‘lqinlarni so‘zlar yordamida tasvirlab, boshqalarda ham shu tuyg‘ularni uyg‘otishdir.” Demak, noodatiy birikmalardan foydalanish ham ana shu ta‘sirni kuchaytiruvchi muhim vositalardan biridir. Ana shunday badiiy vositalardan mahorat bilan foydalangan, she‘rlarida kuchli paradoksal antitezalarni yuzaga keltirgan shoirlardan biri Shuxrat Orif hisoblanadi.

Isboti o‘laroq, shoir she‘riyatida qo‘llangan noodatiy birikmalar uning individual uslubini yaqqol namoyon etadi. Shuhrat Orifning “Men” she‘ridagi quyidagi misralar bunga yorqin misoldir:

Men - suluvni ko‘rmagan oshiq  
Va kormasdan ketishi ayon.  
Ortingizdan yetolmayapman  
Siz xalloslab borursiz qayon

Ushbu misrada qo‘llangan “suluvni ko‘rmagan oshiq” birikmasi zohiran mantiqiy ziddlikni ifodalaydi. Chunki an‘anaviy tasavvurda oshiq — sevgan yorini ko‘rgan, uning jamoliga oshufta bo‘lgan shaxs sifatida talqin etiladi. Biroq shoir bu stereotipni buzadi va muhabbatni ko‘rish hissidan mustaqil holda tasvirlaydi.

Mazkur birikma semantik jihatdan ichki qarama-qarshilik (oksimoron) asosiga



qurilgan bo‘lib, unda “ko‘rmaslik” va “sevish” tushunchalari o‘zaro to‘qnashadi. Aynan shu to‘qnashuv lirik qahramonning ruhiy holatini, uning iztirobli, g‘ayrioddiy va odatiy mantiqdan tashqaridagi muhabbatini ochib beradi. Bundan tashqari, bu yerda sevgi jismoniy idrok (ko‘rish) emas, balki ichki sezgi, qalb va tasavvur orqali kechadigan ruhiy hodisa sifatida talqin etilgan. Bu birikmalar orqali shoir muhabbatni konkret obrazdan mavhum, ilohiy darajaga ko‘taradi. Natijada, mazkur noodatiy birikma nafaqat badiiy yangilik yaratadi, balki asarning falsafiy qatlamini chuqurlashtirib, o‘quvchini muhabbat mohiyati haqida mushohada yuritishga undaydi.

Shoirning “Siz borsiz” she‘riga nazar tashlasak, undagi uchinchi va to‘rtinchi misralar alohida e‘tiborga loyiq:

Yaxshiyam siz borsiz, yaxshiyam,  
Barchasiga ko‘nikdim unsiz  
Xajringiz shirindir umrimdan  
Visoldan go‘zaldir qayg‘ungiz.

Mazkur misralarda ijodkor kuchli badiiy vosita — oksimorondan mahorat bilan foydalangan. Jumladan, “xajringiz shirindir umrimdan” birikmasida o‘zaro zid bo‘lgan tushunchalar uyg‘unlashgan. Chunki an‘anaviy talqinda “ayriliq” og‘riqli va achchiq holat sifatida baholansa, “shirin” so‘zi yoqimlilikni anglatadi. Shoir aynan shu qarama-qarshilik orqali lirik qahramonning ruhiy holatini ochib beradi. Ya‘ni, oshiq uchun yor bilan bog‘liq har qanday kechinma, hatto ayriliq ham qadrlil va azizdir. Bu esa muhabbatning oddiy, an‘anaviy ko‘rinishi emas, balki iztirob bilan uyg‘unlashgan yuksak tuyg‘u ekanini ko‘rsatadi.

Shuningdek, “visoldan go‘zaldir qayg‘ungiz” misrasida ham visol va qayg‘u tushunchalari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilgan. Visol — eng oliy baxt timsoli bo‘lsa, qayg‘u aksincha, iztirobni ifodalaydi. Biroq shoir bu yerda ham odatiy mantiqni buzib, oshiq uchun yor bilan bog‘liq qayg‘u hatto visoldan ham go‘zal ekanini ta‘kidlaydi.

Shuxrat Orif mazkur misralar orqali lirik qahramonning chuqur va iztirobli muhabbat kechinmalarini yuksak badiiy ifodada darajada ifodalab, she‘rning emotsional-ekspressiv ta‘sir kuchini yanada kuchaytiradi.

Shoirning yana bir “Kuzak” nomli she‘rida keltirilgan misralarga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda noodatiy birikmalarning yuksak badiiy mahorat bilan qo‘llanganini kuzatish mumkin:

Xazonlar - oshiqlar qabristoniga  
Umidini ko‘mib, qaytar turnalar  
Samoda yuragim suratini chizib  
Sizning ismingizni aytar turnalar

Ushbu misralarda uchraydigan “xazonlar – oshiqlar qabristoni” birikmasi nihoyatda kuchli va o‘ziga xos badiiy obrazdir. Shoir bu yerda kuz faslini ramziy



ma'noda talqin qilib, uni oshiqlar "dafn etiladigan" makon sifatida tasvirlaydi. Ma'lumki, xazon fasli tabiatda so'lish, yakun va tugash ramzi hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, muallif kuzni sevgi va muhabbatning yakuni, ayriliq va hijron boshlanishi sifatida ifodalagan.

Mazkur noodatiy birikma orqali shoir sevgi tuyg'usini o'lim bilan qiyoslaydi, ya'ni oshiq uchun muhabbatning tugashi ruhiy "o'lim" darajasida og'ir kechishini anglatadi. Bu esa lirik qahramonning ichki kechinmalarini yanada chuqurroq ochib beradi.

She'ning keyingi misralariga e'tibor qaratadigan bo'lsak:

Yaproqdek omonat tebranadi dil,  
Tamaki tutatar yana g'olib kuz,  
Dunyoni bir go'zal rangga bo'yardim,  
Afsus, sizdan oldin kuz keldi, afsus...

Mazkur misralarda ham shoirning noodatiy birikmalar va jonlantirish vositasidan mahorat bilan foydalanganini kuzatish mumkin. Xususan, "tamaki tutatar yana g'olib kuz" birikmasida kuz fasli jonlantirilib, u insoniy xususiyatlar bilan tasvirlangan. "Tamaki tutatish" obrazi ramziy ma'noga ega bo'lib, unda kuzning hukmronligi, ustunligi va beparvoligi ifodalangan. Ya'ni, bu yerda kuz oddiy fasl sifatida emas, balki oshiqlarning orzu va umidlariga qarshi turuvchi kuch sifatida talqin etiladi. Lirik qahramon visolni kutayotgan bir paytda, kuzning "oldin kelishi" uning umidlarini barbod etadi. Shu orqali shoir kuzni sevgi va muhabbatga yakun yasovchi, hijronni boshlab beruvchi ramz sifatida ifodalaydi.

Shoirning "Orzular, fikrlar" she'rida uchraydigan g'ayriodatiy birikmalarga nazar tashlasak:

Orzuning bo'lmaydi so'ngi nuqtasi  
Fikrning muntazam aniq qirg'og'i  
Tafakkur - orzuning chin omuxtasi  
Istiqbol mulkining nurli chirog'i.

Ushbu she'rda qo'llangan "fikrning muntazam aniq qirg'og'i" birikmasi chuqur falsafiy mazmun kasb etuvchi noodatiy birliklardan biridir. Mazkur birikmada mavhum va moddiy tushunchalarning o'zaro uyg'unlashuvi kuzatiladi: "fikr" - tafakkur mahsuli sifatida mavhum tushuncha bo'lsa, "qirg'oq" aniq, moddiy hodisani anglatadi. Shoir ushbu qarama-qarshi tabiatga ega tushunchalarni birlashtirish orqali fikrni ramziy tarzda daryoga qiyoslaydi. Chunki, daryoning qirg'og'i uning chegarasi va yo'nalishini belgilaganidek, inson tafakkuri ham tartib, aniqlik va muayyan mezonlarga tayanishi lozim. Aks holda, chegarasiz daryo toshqin keltirgani kabi, tartibsiz fikr ham inson ongida chalkashlik va beqarorlikni yuzaga keltiradi.

Demak, mazkur noodatiy birikma orqali ijodkor fikrning kengligi bilan birga uning nazorat ostida, aniq va yo'naltirilgan bo'lishi zarurligini chuqur falsafiy asosda



ifodalagan. Bu esa asarning badiiy va ma'naviy qiymatini yanada oshiradi.

Shuxrat Orif o'z ijodida noodatiy birikmalardan mahorat bilan foydalanib, zamonaviy o'zbek she'riyatining rivojiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Mazkur birikmalar orqali shoir she'rlarida mazmuniy chuqurlik, hissiy ziddiyat, poetik tafakkur va falsafiy paradokslarni yuzaga keltira olgan. Natijada, bu kabi badiiy vositalar she'rlarning estetik qiymatini boyitib, o'quvchini chuqur mushohada yuritishga undaydi.

Shuningdek, shoir ijodida qo'llangan noodatiy birikmalar til imkoniyatlarini kengaytirib, o'zbek adabiy tilining rivojlanishiga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M. Yo'ldoshev. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. -Toshkent: 2009. -B.13.
2. I.Ibragimova. Poetik Tafakkurning Lisoniy Reprezentatsiyalashuvi. – Namangan: 2024. – B. 117.
3. M. Yo'ldoshev. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. -Toshkent: 2009. -B.12.
5. Shuxrat Orif. Shom tovushi. – Toshkent: 2020.
6. Shuxrat Orif. Men asli odammas, yor edim. – Toshkent: 2020.